



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI**  
**BUYRUG‘I**

2021-y. “23” 11

810- I/Ch-sonli

**Sportning basketbol turi  
bo‘yicha erkaklar o‘rtasida oliy  
liga O‘zbekiston chempionati  
1, 2, 3, 4-tur bosqichlarini  
o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining 2021-yil uchun respublika kalendar rejasiga muvofiq

**BUYURAMAN:**

1. Sport o‘yinlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining 2021-yil 9-noyabrdagi 370-sonli xati ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sportning basketbol turi bo‘yicha erkaklar o‘rtasida oliy liga O‘zbekiston chempionati 1, 2, 3, 4-tur bosqichlari (bundan buyon matnda musobaqalar deb yuritiladi) 24-noyabr-10-may kunlari Navoiy, Toshkent shahri, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida o‘tkazilsin.

3. Musobaqalar dasturi O‘zbekiston basketbol federatsiyasi tomonidan qish-bahor mavsumi etib tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

4. Musobaqalarning g‘olib va sovrindorlarni 51 dona (1-o‘rin 17 dona, 2-o‘rin 17 dona, 3-o‘rin 17 dona) diplomlar bilan taqdirlash O‘zbekiston basketbol federatsiyasi hamda homiylar hisobidan qoplanishi inobatga olinsin.

5. Musobaqalarda ishtirok etuvchi xodimlar tarkibi 1-ilovaga, musobaqani o‘tkazish sarf-xarajatlar smetasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Moliya-iqtisodiyot departamenti (B.Mirzaxmedov)ga:

a) musobaqalarning 1-2-turlarini o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni vazirlikning sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining 2021-yil uchun respublika kalendar rejasida 2.1.4-basketbol bo‘limida hamda 3-4-turlari 2022-yil uchun respublika kalendar rejasida basketbol bo‘limida belgilangan mablag‘lar hisobidan qoplanishini nazarda tutish;

b) musobaqalarning sarf-xarajatlar smetasiga muvofiq mablag‘larni Sport o‘yinlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazib berilishini ta‘minlash vazifalari yuklatilsin.



7. Musobaqa bosh hakami va hakamlarning ovqatlanish xarajatlari ularning bank plastik kartochkalariga pul o'tkazish yo'li orqali amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

8. Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi (J.Akramov)ga:

a) musobaqalar uchun ajratilgan mablag'larni maqsadli sarflash;

b) musobaqalar yakunidan so'ng uch kun muddat ichida vazirlikning Moliya-iqtisodiyot departamentiga mablag'larning sarflanishi bo'yicha moliyaviy hamda olimpiya sport turlarini rivojlantirish boshqarmasiga texnik hisobotlarni topshirish;

v) musobaqalar davrida vazirlikning Matbuot xizmatiga musobaqaga oid fotolavhalar va to'liq ma'lumotlarni kunma-kun berib borish vazifalari yuklatilsin.

9. Toshkent shahri, Navoiy, Farg'ona va Samarqand viloyatlari turizm va sport bosh boshqarmalari:

a) musobaqalarni o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalari"ga asosan Toshkent shahri, Navoiy, Farg'ona va Samarqand viloyatlari hokimliklaridan tegishli ruxsatnoma olish;

b) musobaqalarni tashkil etishda Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabiga amaliy yordam ko'rsatish vazifalari yuklansin.

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalariga ushbu musobaqada o'zlarining terma jamoasi ishtirokini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

11. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalari hamda vazirlik tizimidagi respublika tizim tashkilot hamda muassasalari rahbarlariga mazkur buyruqning 1-ilovasiga muvofiq tegishliligi bo'yicha xodimlarni musobaqada ishtirok etishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

12. Devonxonaga mazkur buyruq nusxasini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalari hamda Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabiga yuborish vazifasi yuklatilsin.

13. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Vazir o'rinbosari



A.Karimov



**Sportning basketbol turi bo'yicha erkaklar o'rtasida oliy liga  
O'zbekiston chempionati 1, 2, 3, 4-tur bosqichlarini o'tkazishda ishtirok  
etuvchi xodimlar tarkibi**

T/r	Familiyasi va ismi	Lavozimi	Viloyati
1.	Xashimov Dilshod Kasimdjanovich	Bosh hakam	Toshkent viloyati
2.	Paxin Yuriy Dmitrievich	Bosh hakam o'rinbosari	Toshkent viloyati
3.	Xakimova Lilya Rashidovna	Bosh kotib	Navoiy viloyati
4.	Osmanov Enver Serverovich	Hakam	Namangan viloyati
5.	Ilyasov Sultanbek Kulaxmetovich	Hakam	Nukus viloyati
6.	Ganiev Ravshan Mumindjanovich	Hakam	Toshkent viloyati
7.	Mamajonov Azamjon Azizovich	Hakam	Farg'ona viloyati
8.	Abduvalieva Zebo Odiljon qizi	Hakam	Namangan viloyati
9.	Ergashev Alisher Akramjon o'g'li	Hakam	Namangan viloyati
10.	Ortikov Kaxramon Paxlavonjonovich	Hakam	Andijon viloyati
11.	Samedov Vesal Vagifovich	Hakam	Samarqand viloyati
12.	Sharashenidze Omari Georgievich	Hakam	Nukus shahri
13.	Djuraev Dilshod Ulug'bek o'g'li	Hakam	Namangan viloyati
14.	Nuraliev Xurmatjon Muxammadraximovich	Hakam	Toshkent shahri
15.	Ubaydullaev Dilshodbek Rustambekovich	Hakam	Toshkent shahri
16.	Tolkinov Muxammadyusuf Rasuljon o'g'li	Hakam	Farg'ona viloyati
Zaxira			
1.	Nugmanxodjaev Ilxom Akmalovich	Hakam	Namangan viloyati
2.	Usmonov Faxriddin Usmonovich	Hakam	Andijon viloyati
3.	Xalitov Esat Rustemovich	Hakam	Toshkent shahri
4.	Uraimjanov Zokir Iqboljon o'g'li	Hakam	Namangan viloyati
5.	Djaxonov Dilshod Xamidovich	Hakam	Farg'ona viloyati
6.	Kuchina Lyudmila Viktorovna	Hakam	Toshkent shahri
7.	Boroxov Eduard Djuraevich	Hakam	Toshkent shahri
8.	Mirxaxmedov Aybek Maxamadjonovich	Hakam	Toshkent shahri
9.	Umnova Svetlana Rinatovna	Hakam	Toshkent shahri
10.	Elmuradov Elnur Bozorboevich	Hakam	Samarqand viloyati
11.	Mangliev Kobil Raxmonovich	Hakam	Samarqand viloyati